

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish (davlat va jamiyatqurilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, shuningdek, ijtimoiy soha va boshqa sohalaridagi islohotlar haqida tasavvur va fikrlash qobiliyatining mavjudligi)

T/r	SAVOLLAR
KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ	
1.	Konstitutsiyaviy huquqning yetakchi huquq sohasi sifatidagi o'rnini yoritib bering.
2.	Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan ko'rsatib bering.
3.	Konstitutsiya muqaddimasining xususiyatlari hamda konstitutsiya normalarida aks etishini yoritib bering.
4.	O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering
5.	O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishning konstitutsiyaviy asoslarini tushuntirib bering.
6.	Demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi deganda nimani tushunasiz?
7.	Fuqarolikka ega bo'lish va yo'qotish asoslarini tushuntirib bering.
8.	Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishini tushuntirib bering?
9.	Saylov tizimining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering.
10.	Fuqarolar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoritib bering?
11.	Sud orqali huquq va erkinliklarni himoya qilish deganda nimani tushunasiz?
12.	Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to'xtalib bering.
13.	O'zbekistonda vijdon va e'tiqod erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari deganda nimani tushunasiz?
14.	Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurilishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan tavsiflab bering.
15.	Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati nimadan iborat?
16.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli", deb yozilgan normani qanday tushunasiz?
17.	Konstitutsiyada belgilangan shaxsning erkin harakatlanish huquqini tushuntirib bering.
18.	Amaldagi Konstitutsiyada belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi", degan normaning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
19.	Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud?
20.	Hokimiyatlar bo'linish prinsipining mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering.
21.	Shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqining mazmuni yoritib bering?
22.	Referendumda ishtirok etish huquqi deganda nimani tushunasiz?
23.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qanday organ?
24.	Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering.

25.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqaradi?
26.	Qanday xolatlarda Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?
27.	Qonunni qabul qilish jarayonini yoritib bering.
28.	Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega sub'ektlar haqida ma'lumot bering.
29.	Davlat hokimiyati tizimida sud hokimiyatining o'rni va ahamiyatini yoritib bering
30.	O'zbekiston Respublikasi sud tizimini yoritib bering
31.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini qonunchilik doirasida yoritib bering.
32.	Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari masalasini yoritib bering
33.	Sudyalar daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering.
34.	Advokatura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yoritib bering.
35.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi masalasini yoritib bering.
36.	Konstitutsiyaning Asosiy qonun deb atalishining sababi nima?
37.	O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari nimalar?
38.	Konstitutsiyada O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb belgilashning ahamiyati nimada?
39.	O'zbekiston Respublikasining hududiy tuzilishi qanday?
40.	Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi qanday?
41.	Ta'lim olish huquqi Konstitutsiyada qanday belgilangan?
42.	Konstitutsiyada sog'liqni saqlash huquqi qanday belgilangan?
43.	Konstitutsiyada fuqarolarning saylov huquqlari qanday belgilangan?
44.	Ombudsman nima va uning vazifalari qanday?
45.	Konstitutsiyada axborot erkinligi qanday himoya qilinadi?
46.	Konstitutsiyada shaxsiy xayot daxlsizligi huquqi qanday belgilangan?
47.	O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligini qanday ta'minlanadi?
48.	O'zbekiston Konstitutsiyasida huquqiy davlat tamoyili qanday belgilangan?
49.	O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari qanday kafolatlangan?
50.	Konstitutsiyada qonun ustuvorligi tamoyili qanday belgilangan?

MA'MURIY HUQUQ

1.	Ma'muriy huquqning boshqa huquq sohalari, jumladan, "Moliya huquqi", "Mehnat huquqi", "Konstitutsiyaviy huquq" dan farqli jihatlarini tahlil qiling
2.	Ommaviy xizmatlarning huquqiy tabiatini tushuntirib bering.
3.	O'zbekistonda ruxsat berish tizimini tushuntirib bering. Qonunchilikdan misollar keltiring

4.	Ma'muriy sudlar tomonidan qo'llaniladigan arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish va ish yuritishni tugatishning o'zaro farqli jihatlarini tahlil qiling
6.	“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi qonunga binoan jamoatchilik muhokamasining mazmunini yoritib bering
7.	Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarining qaysi biri ma'muriy faoliyatda qonuniylikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi?
8.	Prokurorning ommaviy-ma'muriyat faoliyati ustidan nazorati hujjati sanalgan “protest”ning mazmunini tushuntirib bering
9.	O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunining qo'llanilish sohasini yoritib bering.
10.	O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunining ishonchlik prinsipini yoritib bering.
11.	O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi ma'muriy organ tushunchasini yoritib bering
12.	Ma'muriy hujjatning mazmuniga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?
13.	O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonunning Byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi prinsipini yoritib bering.
14.	“Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida”gi Qonunga ko'ra ma'muriy ish yuritishda vakillik tushunchasini yoritib bering?
15.	O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonuniga binoan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlarni sanab bering?
16.	“Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida”gi Qonunga binoan ma'muriy ish yuritishda rad qilish masalasini tushuntirib bering?
17.	Ma'muriy ish yuritish muddatlarini tushuntirib bering?
18.	“Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida”gi qonunga ko'ra ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqishni keyinga qoldirish masalasini tushuntirib bering.
19.	Ma'muriy ish yuritishni tugatish masalasini tushuntirib bering.
20.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy sudga murojaat etish orqali hal etishning huquqiy asoslarini tahlil qiling.
21.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy organga murojaat etish orqali hal etishning huquqiy asoslarini tahlil qiling.
22.	Zamonaviy ma'muriy huquq sohasida xususiy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini suddan tashqari tartibda himoya qilish usulining mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat?
23.	Ma'muriy shikoyat qilish tartibi qanday normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi/
24.	Ma'muriy shikoyat qilish qanday talablarga javob berishi lozim?
25.	Ma'muriy shikoyat qilish ishtirokchilari qanday huquq va majburiyatlarga ega?
26.	Ma'muriy shikoyat qilish tartibi qanday?
27.	Ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat etish muddatlarini tahlil qiling.
28.	Ma'muriy shikoyat bo'yicha qaror deganda nima tushunasiz?
29.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy sudga murojaat etish orqali hal etishda ma'muriy sud tomonidan hal etiladigan ishlarni tahlil qiling.
30.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylik deganda nimani tushunasiz?

31.	Qonuniylikni ta'minlash qanday choralarni o'z ichiga olishini yoritib bering
32.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning qanday uslublari mavjudligini yoritib bering.
33.	Ma'muriy nazoratni boshqa nazorat turlaridan farqini tahlil qiling.
34.	Ma'muriy nazoratni boshqa uslublardan farqini yoritib bering
35.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylikni ta'minlash usuli sifatidagi shikoyat qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
36.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida fuqarolar huquqlarini ta'minlashda xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalarning o'rni qanday?
37.	Jamoatchilik nazoratining shakllarini tushuntirib bering.
38.	Parlament nazorati obyektini tushuntirib bering.
39.	Prokuror nazorati hujjati sifatida ogohlantiruvni tushuntirib bering.
40.	Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi Qonunga ko'ra ushbu hujjat qaysi sohalarga tatbiq etilmaydi?
41.	Davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar nimalardan iborat?
42.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlarini tushuntirib bering
43.	Davlat fuqarolik xizmatchisi qanday huquqlarga ega?
44.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining majburiyatlarini amaliy misollar bilan tushuntirib bering
45.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari nimalardan iborat
46.	Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish shartlarini tahlil qiling
47.	Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya va uning maqsadini tushuntirib bering
48.	Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo choralarining qo'llanilishi asoslari, tartibini tahlil qiling
OILA HUQUQI	
1.	Oila huquqiga ta'rif bergan holda uni predmetini aniqlang
2.	Oila huquqi tizimi o'z ichida umumiy maxsus qismlarga bo'linadi va bu qismlar o'zaro bir-biriga bog'liq sanaladi. Muhokama qiling.
3.	Oilaviy-huquqiy munosabatlar o'zining mazmuniga ko'ra boshqa huquqiy munosabatlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Muhokama qiling.
4.	Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar asosan shaxsiy harakterga ega bo'lsa-da, ular ichida mulkiy harakterga ega bo'lgan huquq va majburiyatlar ham alohida o'rin egallaydi. Muhokama qiling.
5.	Nikoh tuzish oila qonunchiligi bilan tartibga solinsa-da, o'zining xususiyatiga ko'ra ma'muriy munosabat hisoblanadi. Muhokama qiling.
6.	Oila qonunchiligi nikoh tuzish uchun bir qator shartlar belgilaydi. Agar mazkur shartlarga rioya qilinmasa, nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Muhokama qiling.
7.	Nikohni haqiqiy emas deb topish muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.
8.	Er va xotinning huquq va majburiyatlarining vujudga kelish asoslari haqida fikr yuriting
9.	Nikohlanuvchilar qonuniy nihodan o'tishda o'zlariga familiya tanlash huquqiga ega emas. Xotin har doim erining familiyasiga o'tishi kerak.

	Muhokama qiling.
10.	Er va xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishda har doim ham teng huquq va majburiyatga ega bo`lavermaydi. Aksariyat holatda bolalarni tarbiyalash majburiyati faqat xotin zimmasiga yuklatilishi mumkin. Muhokama qiling.
11.	Er va xotinning umumiy mulki qanday shakllantiriladi va bu mulk tarkibiga nimalar kiradi.
12.	Er va xotin umumiy mulkka ega bo`lish bilan birga, er-xotinning har birining xususiy mulki ham mavjud. Er-xotinning shaxsiy (xususiy) mulkiga nimalar kirishi haqida fikr yuriting.
13.	Nikoh shartnomasini tuzish qanday amalga oshiriladi?
14.	Nikoh shartnomasining mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
15.	Qonun chiqaruvchi voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy, mulkiy huquqlarini alohida belgilaydi va himoya qiladi. Muhokama qiling.
16.	Aliment majburiyatlarining umumiy qoidalar haqida nimalarni bilasiz.
17.	Amaldagi oila qonunchiligi ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlarini alohida normalar bilan belgilaydi. Muhokama qiling.
18.	Voyaga yetmagan bolalar ta`minoti uchun aliment to`lovlarining o`ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
19.	Qonun chiqaruvchi er-xotin va sobiq er-xotinning bir-biriga aliment to`lashi haqida normalarni belgilab qo`ygan. Muhokama qiling.
20.	Qonun chiqaruvchi ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni joylashtirishning bir necha shakllarini belgilaydi. Muhokama qiling.
21.	Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish borasida fikr yuriting.
22.	Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o`zgarishi va bekor bo`lishi asoslari haqida batafsil ma`lumot bering
23.	Oila huquqi tamoyillari deganda nimani tushinasiz va qanday tamoyillarni bilasiz?
24.	Oila qonunchiligiga ko`ra ko`p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish deganda nimani tushinasiz?
25.	Oila qonunchiligiga muvofiq xalqaro shartnomalarning qo`llanilishi borasida nimalarni bilasiz?
26.	Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslarini muhokama qiling.
27.	Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?
28.	Ota-onalik huquqidan mahrum qilish qanday huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi?
29.	Oila qonunchiligiga muvofiq ota-onalik huquqini tiklash bilan bog`liq qanday normalar mavjud?
30.	Boladan alohida yashayotgan ota (ona) ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi borasida qanday huquqiy normalarni bilasiz?
31.	Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan ko`rishib turish huquqi haqida oila qonunchiligida kafolatlab berilgan huquqlar hususida mulohaza yuriting.
32.	Oila qonunchiligiga muvofiq ota-onalik huquqining cheklanishi to`g`risida mulohaza yuriting.
33.	Ota-onalik huquqini cheklash qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?
34.	Ota-onalik huquqi cheklanishini bekor qilish tartibini oila qonunchiligi bilan muhokama qiling.
35.	Bolaning hayoti yoki sog`lig`i bevosita xavf ostida qolganda bolani ota-onadan olib qo`yish qanday huquqiy munosabatni vujudga keltiradi?
36.	Alimentni indeksatsiya qilish tushunchasi bog`liq qoidalarni muhokama qiling.

37.	Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs chet davlatga ketayotganida aliment to'lanishi bog'liq qoidalarni muhokama qiling.
38.	Aliment miqdorini o'zgartirish, aliment to'lashdan ozod qilish va aliment majburiyatlarining tugatilishi to'grisida oila qonunchiligida belgilangan normalarni muhokama qiling.
39.	Farzandlikka olish tushunchasi va mohiyatini muhokama qiling.
40.	Farzandlikka olishi mumkin bo'lgan shaxslar hamda bu huquqdan mustasno bo'lgan shaxslar doirasini aniqlab muhokama qiling.
41.	Farzandlikka olishni sir saqlash tushunchasi va Farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini muhokama qiling.
42.	Farzandlikka olish natijasida qanday huquqiy oqibatlar vujudga keladi?
43.	Farzandlikka olishni bekor qilish asoslarini oila qonunchiligi asosida tahlil qiling.
44.	Farzandlikka olishni bekor qilish tartibi va oqibatlarini oila qonunchiligi asosida muhokama qiling.
45.	Bolalarni oilaga tarbiyaga berish (patronat) tartibi haqida oila qonunchiligidagi normalarni muhokama qiling.
46.	Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish tartibini muhokama qiling.
47.	Tug'ilishni qayd etish tartibi haqida oila qonunchiligida belgilangan normalarni muhokama qiling.
48.	Nikoh tuzilganligini qayd etishning alohida hollari hususida oila qonunchiligidagi mavjud normalarni muhokama qiling.
49.	Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratish tartibini muhokama qiling.

Ixtisoslikni tanlashda motivatsiya (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiyqiziqish bildirish)

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

1.	Huquqiy davlat tushunchasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tahlil qiling
2.	Huquqiy prezumpsiyani amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
3.	Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisini va uning tarkibiy elementlarini tushuntirib bering.
4.	Sust huquqiy xulq-atvor nima? Savolga javoblaringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
5.	Huquqbuzarlikning yuridik tarkibini tahlil qiling.
6.	Huquqbuzarlik tushunchasiga ta'rif bering va uning asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
7.	Huquqiy munosabat subyekti elementlarini batafsil yoritib bering.
8.	Huquq tizimi va huquqiy tizim tushunchalarini tahlil qilish orqali ularning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
9.	Moddiy huquq va protsessual huquqning o'zaro nisbatini yoritib bering.
10.	Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi bo'lgan kodifikatsiyaning mohiyatini tushuntiring.
11.	Davlatning ijtimoiy funksiyasi mazmun-mohiyatini yoritib bering.
12.	Huquqdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf qilish yo'llarini muhokama qiling.
13.	Kazual sharhlash deganda qanday sharhni tushunasiz?

14.	Huquq normasini sharhlashning tarixiy-siyosiy usuli deganda nima tushuniladi?
15.	Norasmiy sharhlash va uning turlarini bayon qiling?
16.	Bugungi kunda davlat funksiyalarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni misollar bilan tushuntiring.
17.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti sifatida huquqiy tarbiyaning ahamiyatini tushuntiring.
18.	Hokimiyatlar bo'linishi tamoyili mazmunini tushuntiring.
19.	Yuridik faktlar tushunchasiga ta'rif bering va ularga misollar keltiring.
20.	Huquqiy oila deganda nima tushuniladi?
21.	Huquq manbasi sifatida normativ shartnomaning nazariy va huquqiy jihatlarini yoritib bering.
22.	Huquqiy precedents tushunchasi va turlarini bayon qiling.
23.	Huquqning asosiy manbasi sifatida normativ-huquqiy hujjatning mazmun-mohiyatini yoritib bering.
24.	Normativ-huquqiy hujjatlarning o'zaro nisbatini qonun normalari asosida tushuntiring.
25.	Huquq ijodkorligi tushunchasi va turlarini misollar yordamida tahlil qiling
26.	Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalarini tahlil qiling.
27.	Qonunchilik tashabbusi huquqini nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qiling.
28.	Huquqiy ong tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini bayon qiling.
29.	Fuqarolik jamiyati tushunchasi va belgilarini tushuntiring.
30.	Huquq normasining elementi sifatida sanksiya nima?
31.	Huquq normasi tarkibiy qismi sifatida gipoteza va uning turlarini tushuntirib bering.
32.	Subyektlar huquqiy ongi darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
33.	Tavsiflovchi dispozitsiya nima? Firlaringizni misollar bilan asoslantiring.
34.	Kumulyativ sanksiya nima? Sodir etilgan jinoyat uchun qo'shimcha jazo berilishi mumkinmi?
35.	Huquq layoqati va muomala layoqatining tushunchalari farqli jihatlarini yoritib bering.
36.	Huquqni qo'llash tushunchasiga ta'rif bering va uning belgilarini tushuntiring.
37.	Huquq analogiyasi va qonun analogiyasining qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
38.	Rasmiy va norasmiy sharhlashning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
39.	Huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik belgisi mazmunini yoritib bering.
40.	Davlatning ekologik funksiyasini misollar bilan tavsiflang.
41.	Huquq normasining tarkibiy qismi bo'lgan dispozitsiya tushunchasi va turlarini yoritib bering.
42.	Axloq va huquq normalari o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlarini tahlil eting.
43.	Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi va ularni normativ tartibga solishning obyektiv zaruriyatini tushuntiring.

44.	Federativ davlat shaklining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling va amaliy misollar asosida bayon eting.
45.	Normativ-huquqiy hujjatlar turlarini yuridik kuchi jihatidan bayon qiling.
46.	Davlat mexanizmi tushunchasi, tarkibiy qismlarini tushuntiring.
47.	Qonunchilikdagi kolliziyalar tushunchasi va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qiling.
48.	Davlat boshqaruvining shakli sifatida aralash respublikaning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirib bering.
49.	O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shaklining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
50.	Huquq ustunligi konsepsiyasi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

HUQUQIY KO'NIKMALAR VA METODOLOGIYA

1.	Yuristlar uchun "soft skills" qay darajada muhim?
2.	Yuristlar uchun "soft skills" ko'nikmalarning eng muhimlari qaysilar, deb o'ylaysiz?
3.	Soft skills aynan qanday ko'nikmalar va malakalar tizimidan iborat?
4.	"Soft skills" va "Hard skills"ning o'zaro to'ldiruvchi va farqli jihatlarini misollar bilan yoritib bering.
5.	"Soft skills" orqali qanday maqsadlarga erishiladi?
6.	Yuridik kadrlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish qanday ahamiyat kasb etadi?
7.	Nima uchun ba'zan qo'yilgan maqsadga yetishish qiyin tuyuladi?
8.	Maqsad va orzuning farqli jihatlarini yoritib bering?
9.	Maqsadga erishishda "100 foiz qoidasi" qanday qo'llaniladi?
10.	Huquqshunosning professional faoliyati davomida maqsadni to'g'ri shakllantirish qanday ahamiyatga ega?
11.	Kichik rejalarni amalga oshirishda "Uch Harvard savoli" metodi qanday samara beradi?
12.	Prezentatsiyaga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?
13.	Prezentatsiyalarning qanday turlari va shakllari bor?
14.	Prezentatsiyaga qiziqarli nom qanday tanlanadi?
15.	Prezentatsiya muvaffaqiyati qaysi omillarga bog'liq?
16.	Prezentatsiyada eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarni yoritib bering.
17.	Siz, prezentatsiyada nima yoqmaydi degan savolga qanday javob bergan bo'lar edingiz?
18.	Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish nima uchun kerak?

19.	SWOT va PEST tahlillar o'rtasidagi asosiy farqlarni yoritib bering.
20.	Vaqtning boshqarish nimaga kerak va uni unumli boshqarish jarayoni qanday qismlardan iborat?
21.	Qanday vaqtning oraliq vaqt sifatida tushunishimiz kerak, undan qanday unumli foydalanish mumkin?
22.	Eyzenxauer matritsasi nima uchun kerak?
23.	"80/20" qoidasi qanday vaziyatlarda qo'llaniladi? Mazkur qoidaning mohiyatini hayotiy misollar bilan tushuntirib bering.
24.	Mutaxassislarning taym-menejment bo'yicha qanday muhim tavsiyalari bor?
25.	Nima uchun huquq sohasida ham ta'sirchan nutqning, notiqlikning o'rni va ahamiyati katta?
26.	Nutq so'zlashning qanday uslublarini farqlash mumkin?
27.	Ommaning oldidagi nutqning asosiy qismlari va ularning maqsadini bayon qiling.
28.	Nutq sifatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
29.	Ommaning oldida nutq so'zlashga qanday tayyorlanish kerak?
30.	Huquqshunos nutqi tinglovchining diqqatini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
31.	Auditoriya diqqatini jalb qilish uchun qanday usullardan foydalangan ma'qul?
32.	Kreativlik nima va uning yurist faoliyatidagi ahamiyatini yoritib bering.
33.	Mantiqiy fikrlashning asosiy talablarini tushuntiring.
34.	Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullarga nimalar kiradi?
35.	Argumentatsiya tarkibi qaysi elementlardan iborat? Fikringizni batafsil izohlang.
36.	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning fazalarini izohlab bering.
37.	To'g'ri qaror qabul qilishni shakllantirish metodlarini izohlab bering.
38.	To'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?
39.	Jamoaning ishchi guruhdan farqi nimada?
40.	Nima uchun jamoada ishlash bugungi ish beruvchilar uchun juda muhim hisoblanadi?
41.	Nima uchun "jamoada ishlashni bilish" ko'nikmasi liderlik xislatlari bilan teng baholanadi?
42.	Lider bilan rahbar tushunchalari o'rtasida qanday o'xshash va mushtarak jihatlar mavjud?
43.	Empatiya huquqshunos uchun qay darajada muhim?
44.	Rezyume nima va huquqshunos rezyumesini tuzish uchun qanday tavsiyalar mavjud?
45.	O'z imiji ustida ishlashning ahamiyati nimada?
46.	Imij va reputatsiya tushunchalarining farqli jihatlarini izohlab bering. Reputatsiyaning qanday turlari bor?
47.	Huquqshunos uchun qanday axloqiy sifatlar muhim hisoblanadi?
48.	Yurist kasb etikasining eng muhim xususiyatlarini tavsiflang.

49.	“Maqsad vositani oqlaydi” degan ibora huquqiy etikaga to‘g‘ri keladimi? Javobingizni asoslang.
50.	Muzokara qanday tamoyillar asosida olib boriladi?
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH	
1.	Rasmiy uslub nima? Rasmiy uslubga xos bo‘lgan bosh belgilarga ta‘rif bering.
2.	Sizningcha, til va nutq qanday hodisa? Til va nutq bir-biridan farq qiladigan, lekin o‘zaro aloqador hodisadir. Ya’ni til aloqa quroli, fikr bayon qilish vositasi bo‘lsa, nutq – faoliyat. Til va nutqning umumiy hamda farqli tomonlari nimalardan iborat?
3.	Rasmiy uslubda jonli so‘zlashuv nutqi elementlaridan faol foydalaniladimi?
4.	Nutq og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Biroq nutqning bu ikki ko‘rinishi bir-biridan ba’zi jihatlari bilan farqlanadi. Og‘zaki va yozma nutq orasidagi farqni tushuntiring.
5.	Ish yuritish hujjatlari qo‘llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko‘ra qanday guruhlargaga bo‘linadi? Ba‘zilarini tushuntiring.
6.	Hujjatlar bajariladigan vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
7.	Nutqning kommunikativ sifati adabiy til doirasida shakllanadi. Bunda nutqning tozaligi va ravonligi muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati haqida gapirilganda bevosita insonning nutqda nome’yoriy so‘zlarni qo‘llamasdan, nutqning ravonligiga putur yetkazuvchi nuqsonlarsiz fikr ifodalashi ko‘zda tutiladi. Nutqning ravonligi va tozaligini buzuvchi unsurlarni tushuntiring.
8.	Hujjatni rasmiylashtirish talablarini tushuntiring.
9.	Nutq madaniyatining asosiy mezoni adabiy til me’yorlari hisoblanadi. Adabiy til me’yorlari deyilganda, til vositalarining umumxalqqa tushunarli bo‘lgan muqobil variantlarini tanlash tushuniladi. O‘zbek adabiy tili me’yorlari qanday tasniflanadi?
10.	Nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifati lingvistik mezonlarga bevosita bog‘liqdir. Bu qanday mezonlar?
11.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha qanday maqsadlar ko‘zlangan?
12.	Qanday hujjatlar tashkiliy hujjatlar hisoblanadi? Ular nimalarni belgilab beradi?
13.	Hujjatlar <i>mazmuniga</i> ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
14.	Muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Adabiy tilning funksional uslublarini tushuntiring.
15.	Rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Davlat tilida ish yuritish faoliyati ana shu uslubda olib boriladi. Rasmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
16.	Ish yuritishda murojaat xatlari va ularning turlarini tushuntiring.
17.	Farmoyish hujjat hisoblangan buyruq qanday hujjat?
18.	Majlis bayonnomasi qanday hujjat?
19.	Bildirishnoma qanday hujjat? Bildirishnoma hujjatiga ta‘rif bering, tarkibiy qismlarini sanang.
20.	So‘rov xati qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?
21.	Elektron hujjat qanday tuziladi, ishlov beriladi va saqlanadi? Elektron hujjat qanday majburiy rekvizitlardan tashkil topadi?
22.	Dalolatnoma qanday rasmiylashtiriladi?
23.	Da‘vo xati qanday hujjat?

24.	Ishonchnoma qanday hujjat turi hisoblanadi? U haqida ma'lumot bering.
25.	Ma'lumotnoma qanday hujjat?
26.	Javob xatini talab qilmaydigan xatlar uslubiyati haqida ma'lumot bering (Tasdiq, ilova, eslatma, axborot, kafolat xatlari).
27.	Amalga oshirilgan ishlar hisobotining maqsadi nima va ularda nimalarni yozish kerak?
28.	Protsessual hujjatlar nima uchun rasmiylashtiriladi?
29.	Tavsifnoma nima? Tavsifnomaning qanday zaruriy qismlari bor?
30.	Annotatsiya nima?
31.	Nima maqsadda eslatma xat yoziladi?
32.	Ish yuritish jarayoni yangi sohami?
33.	Axborot xat nima?
34.	Tavsifnoma hujjatmi?
35.	Maqola yozish xususiyatlarini tushuntiring.
36.	Maqola yozish qoidalarini tushuntiring.
37.	Murojaat xatlari va ularning turlari
38.	Ilmiy uslub xususiyatlarini tushuntiring.
39.	Da'vo, so'rov va iltimos xatlari haqida ma'lumot
40.	Javob xatini talab qilmaydigan xatlarga nimalar kiradi?
41.	Kafolat xat nima?
42.	Tinish belgilarining uslubiy vazifasini tushuntiring.
43.	Rasmiy va shaxsiy xatlarning leksik-sintaktik qurilishi
44.	Mehnat daftarchasi deganda nimani tushunasiz?
45.	Rasmiy uslubda qolip nima?
46.	Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat nomi nima?
47.	Ish yuritish yozishmalari matnida til birliklarini qo'llashga doir qanday o'ziga xosliklar bor?
48.	Shaxsiy va rasmiy xatlarning grammatik me'yorlarini tushuntiring.
49.	Rasmiy uslubning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini tushuntiring.
50.	Farmoyish qanday hujjat? Farmon-chi?

Yurisprudensiya sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi (professional ta'limi darajasida yurisprudensiya sohasida o'z fikrini bayon qilish va tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi)

FUQAROLIK HUQUQI

1.	Fuqarolik qonun hujjatlari nimalarga asoslanadi, ular bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
2.	Qaysi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda analogiya (o'xshashlik) qo'llaniladi?
3.	Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining qanday asoslari mavjud?
4.	Fuqarolik huquqlari qanday yo'llar bilan himoya qilinadi?
5.	Fuqarolik huquqida jismoniy shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
6.	Huquq layoqati deganda nimani tushunasiz?
7.	Muomala layoqati nima?
8.	O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati haqida tushuntirib bering.
9.	Emansipatsiya nima?
10.	O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati deganda nimani tushunasiz?
11.	Qanday hollarda fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb toppish mumkin?
12.	Fuqaroning muomala layoqatini cheklash qanday hollarda amalga oshiriladi?
13.	Vasiylik va homiylik deganda nimani tushunasiz?
14.	Fuqaroni qanday hollarda bedarak yo'qolgan deb topish mumkin?
15.	Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
16.	Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
17.	Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari nimalardan iborat?
18.	Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
19.	Yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
20.	Yuridik shaxslarning turlari haqida nimalarni bilasiz?
21.	Jamoat birlashmalari nima?
22.	Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk qanday turlarga bo'linadi?
23.	Ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qanday?
24.	Xususiy va turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar nima?
25.	Shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar deganda nimani tushunasiz?
26.	Bitimning og'zaki shakliga ta'rif bering.
27.	Bitimning yozma shakliga ta'rif bering.
28.	Bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz?

29.	O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz?
30.	Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz?
31.	Ishonchnoma va uning shakliga qo'yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz?
32.	Notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar qaysilar?
33.	Da'vo muddati nima va uning o'tishi qanday hollarda to'xtatiladi?
34.	Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablarni sanang.
35.	Mulk huquqining subyektlari kimlar bo'lishi mumkin?
36.	Servitut huquqi nima?
37.	Operativ boshqarish huquqi deganda nimani tushunasiz?
38.	Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishini tushuntirib bering.
39.	Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddatni tushuntirib bering.
40.	Egasiz ashyo deganda nimani tushunasiz?
41.	Topilma nima?
42.	Xazina deganda nimani tushunasiz?
43.	Mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini tushuntirib bering.
44.	Natsionalizatsiya va rekvizitsiya deganda nimani tushunasiz?
45.	O'zboshimchalik bilan imorat qurish va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz?
46.	Respublika mulkiga ta'rif bering.
47.	Munitsipal mulk deganda nimani tushunasiz?
48.	Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
49.	Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslarini tushuntirib bering.
50.	Majburiyatni bajarish joyi deganda nimani tushunasiz?

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

1.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishni qanday turlari bor?
2.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga qaysi ishlar taalluqli?
3.	Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga kimlar kiradi?
4.	Fuqarolik protsessida taraflar deganda kimlar tushuniladi?
5.	Fuqarolik sudlari tomonidan beriladigan sud buyrug'i nima?
6.	Alimentlarni hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar undirish tartibini tushuntiring.
7.	Sud muhokamasining oshkoraligi prinsipini tushuntiring?

8.	Fuqarolik ishining yakka tartibda va hay'atda ko'rilishi deganda nimani tushunasiz?
9.	Qachon sud ishni boshqa sudga o'tkazadi?
10.	Fuqarolik protsessual muomala layoqatini tushuntiring?
11.	Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar kimlar?
12.	Fuqarolik protsessida guvoh kim? Kimlar guvoh sifatida so'roq qilinmaydi?
13.	Qonuniy vakillik deganda nimani tushunasiz?
14.	Kimlar sudda vakil bo'la olmaydi?
15.	Sudga beriladigan arizada nimalar ko'rsatiladi?
16.	Sud hal qiluv qarori mazmunini tushuntiring?
17.	Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishini tushuntiring?
18.	Fuqarolik sudida qachon ish sirtidan ko'riladi?
19.	Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar qaysilar?
20.	Isbotlash vositalarini sanab bering?
21.	Sud xarajatlari tushunchasi va uning turlarini tahlil qiling.
22.	Yozma dalillar deganda nimani tushunasiz?
23.	Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga nimalar kiradi?
24.	Sud ishni ko'rish vaqtida qanday protsessual majburlov choralarni qo'llaydi?
25.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda sud buyrug'i qaysi talablar bo'yicha beriladi?
26.	Sud buyrug'i berish tartibi va muddatini tushuntiring.
27.	Sud buyrug'ining sud hal qiluv qaroridan qanday farqli jihatlari mavjud.
28.	Protsessual muddatlarni tushuntiring?
29.	Ish yuritishni tugatish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
30.	Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari va huquqiy oqibatini tushuntiring.
31.	Arizani qaytarish asoslari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
32.	Sudga ariza taqdim etish tartibini tushuntiring?
33.	Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish muddatlarini ayting.
34.	Sud qaysi hollarda ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin?
35.	Sirtidan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring?
36.	Sud jarimalarini solish tartibini tushuntiring?
37.	Sud chaqiruv qog'ozida nimalar ko'rsatiladi?

38.	Fuqarolik sudga murojaat qilish shakllarini ayting?
39.	Fuqarolik sud hujjatlari turlarini ayting?
40.	Sud ijro varaqasi nima va unda nimalar ko'rsatiladi.
41.	Ishni ko'rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi deganda nimani tushunasiz.
42.	Fuqarolik protsessda taraflar kimlar?
43.	Fuqarolik protsessda guvoh kim?
44.	Fuqarolik protsessida prokurorning protsessual huquq va majburiyatlarini ayting.
45.	Fuqarolik protsessda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar kimlar?
46.	Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar kimlar.
47.	Ekspertiza va uning turlarini tushuntiring.
48.	Fuqarolik sudda apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini ayting?
49.	Kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini ayting.
50.	Qarshi da'voni qabul qilish shartlarini ayting.

MEHNAT HUQUQI

1.	Mehnat qonunchiligiga ko'ra, ishga joylashtirish sohasida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga qo'shimcha kafolatlar beriladi. Aholining bunday toifasiga kimlar kiradi?
2.	Xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlari qanday belgilangan?
3.	Aholining ehtiyojmand toifalari uchun ish o'rinlarining belgilanadigan eng kam soni qanchani tashkil qiladi?
4.	Mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganda o'rtacha oylik ish haqini ishga joylashtirish davrida saqlab qolishga oid kafolat nazarda tutilgan. Mazkur kafolat mehnat shartnomasi qaysi asoslarga ko'ra bekor qilinganda beriladi?
5.	Jamoa shartnomasi nima va uning shakliga qanday talab qo'yilgan?
6.	Har yilgi mehnat ta'tilini pulli kompensatsiya bilan almashtirishni tahlil qiling.
7.	Dam olish vaqti qanday turlardan iborat?
8.	O'zbekistonda ishlanmaydigan bayram kunlari nechta? Ularni sanab o'ting?
9.	Qonunchilikda xodimlarga qanday ijtimoiy ta'tillar belgilangan.
10.	O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga yillik uzaytirilgan ta'til berishning asosiy xususiyatlarini yoritib bering?
11.	O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun har kunlik ishning davomiyligini yoritib bering?
12.	O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mehnatini qo'llash taqiqlanadigan ishlar haqida gapirib bering.
13.	O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishni, ish vaqtdan tashqari ishlarga, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishni taqiqlash haqida gapirib bering.
14.	O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarning ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida mehnatiga haq to'lash

	xususiyatlarini yoritib bering.
15.	Mehnat shartnomasini bekor qilishda o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun qonunchilikda qanday qo'shimcha kafolatlar berib o'tilgan.
16.	Ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish muddatlari haqida ma'lumot bering.
17.	Kimlar yakka tartibdagi mehnat nizosining ko'rib chiqilishi uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega?
18.	O'z tashabbusiga ko'ra bekor qilinganda ish beruvchini ogohlantirishning boshqa muddatlariga misollar keltiring.
19.	Mehnat nizolari bo'yicha komissiyani tuzish tartibini yoritib bering.
20.	Mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning vakolatlarini yoritib bering.
21.	Yakka tartibdagi mehnat nizosini mehnat nizolari bo'yicha komissiyada ko'rib chiqish tartibini tahlil qiling.
22.	Tungi vaqtdagi ishning davomiyligini tahlil qiling.
23.	Ish vaqtining tushunchasi va uning turlarini yoritib bering qanday turlarini bilasiz va ularning asosiy bir biridan farqlari nimada?
24.	Ish vaqtdan tashqari ishga jalb etishning tartibi, chegarasi va muddati, shuningdek ish vaqtdan tashqari bajarilgan ish uchun kompensatsiya va haq to'lash tartibi to'g'risida qanday ma'lumotlarni bilasiz.
25.	Ish vaqti rejimi va uni hisobga olish deganda nimani tushunasiz va qanday turlarini bilasiz?
26.	Ish vaqtini jamlab hisobga olishni belgilash va qo'llash tartibi deganda nimani tushunasiz?
27.	Ish beruvchining ish vaqtini hisobga olishni tashkil etishga doir majburiyati deganda nimani tushunasiz?
28.	Muddatli mehnat shartnomasida uning muddati qanday belgilanishi mumkin?
29.	Ishga qabul qilish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
30.	Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilish tartibi qanday?
31.	Muddatli mehnat shartnomasini uning muddati tugashi munosabati bilan bekor qilish tartibi qanday?
32.	Mehnat shartnomasini yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganlik yoxud saylashda, tanlovda ishtirok etishni rad etganlik munosabati bilan bekor qilish tartibi qanday?
33.	Ish haqini to'lash muddatlarini tahlil qiling.
34.	Qaysi hollarda, xodimning yozma roziligidan qat'i nazar, ish haqidan ushlab qolish amalga oshiriladi?
35.	Qon va uning tarkibiy qismlarini topshirganda xodimlarga qanday kafolatlar taqdim qilinadi?
36.	Intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibini tahlil qiling.
37.	Xizmat tekshiruvi tushunchasi va uni o'tkazish muddatini tahlil qiling.
38.	Intizomiy jazoning amal qilish muddati, tugallanishi va olib tashlanishini tahlil qiling.
39.	Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aytib bering?
40.	Mehnat kodeksning asosiy vazifalarini yoritib bering?
41.	Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi mohiyatini tushuntirib bering?

42.	Xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo‘l qo‘yilmasligi prinsipi mazmuni ochib bering?
43.	Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning amal qilish sohasini yoritib bering?
44.	Mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarni ochib bering?
45.	Dastlabki sinov paytida mehnat shartnomasini bekor qilishni tahlil qiling.
46.	Xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishlash uchun ko‘chishni rad etishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni tahlil qiling.
47.	Muddatli mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to‘lashni tahlil qiling.
48.	Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishni kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishib olishni tahlil qiling.
49.	Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra bekor qilish asoslarini tahlil qiling.
50.	Mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirishni tahlil qiling.
JINOYAT HUQUQI	
1.	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi vazifalari nimalardan iborat?
2.	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi mazmun-mohiyatini ochib bering.
3.	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining odillik prinsipi mazmun-mohiyatini ochib bering.
4.	Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilish masalasini yoritib bering.
5.	Jinoyat va ijtimoiy xavfli qilmish tushunchalarini ayting.
6.	Jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra tasniflashda qanday mezon asos qilib olingan?
7.	Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra qanday tasniflanadi?
8.	Jinoyatlarning predmeti nima va jinoyat ob‘ektidan farqi nima. O‘zbekiston Respublikasi JK dan amaliy misollar bilan farqli jihatlarini tushuntirib bering.
9.	Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va huquqqa xilofligi kabi belgilarining o‘zaro nisbati qanday?
10.	Jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarini jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
11.	Jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgilarining ahamiyati va ularning roli qanday?
12.	Jinoyatlarni sifat ko‘rsatkichlari va miqdor ko‘rsatkichlariga ko‘ra tasniflash nimani anglatadi?
13.	Jinoyat motivi va maqsadining jinoyat-huquqiy ahamiyati nimadan iborat? Ularning farqi nimada?
14.	Yuridik va faktik xatolarni aytib bering.
15.	Harakatsizlikning jinoyat-huquqiy ahamiyatini aniqlash uchun qanday belgilari aniqlanishi kerak?
16.	Tamom bo‘lmagan jinoyatning qanday turlari mavjud va ularning jinoyat-huquqiy mohiyati nimada?
17.	Zaruriy mudofaa hamda oxirgi zaruratning farqli jihatlarini tahlil qiling.
18.	Jinoiy oqibatlarining turlarini ayting. Jinoiy oqibatlar turlarini amaliy misollar bilan asoslab bering?

19.	Davomli jinoyatlar va ularning takroran sodir etilgan jinoyatlardan farqli jihatlarini tahlil qiling.
20.	Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish asoslari nimalardan iborat?
21.	Aybsiz holda zarar yetkazish mazmunini yoritib bering.
22.	Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadini yoritib.
23.	Jinoiy jazo shakllari: asosiy, qo'shimcha va aralash turdagi jazolarni bayon qiling.
24.	Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo kimlarga nisbatan tayinlanmaydi?
25.	Aqli norasolikning yuridik (psixologik) va tibbiy mezonlari nimalardan iborat?
26.	Tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasini yoritib.
27.	Bir qancha jinoyatlar yuzasidan jazo tayinlashni tahlil qiling.
28.	Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi haqida gapiring?
29.	Maxsus sub'ektning belgilarini aytib bering. Uni umumiy sub'ektdan nima farqli jihatleri bor?
30.	Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlarini tahlil qiling?
31.	Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish tartibi qanday?
32.	Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartlarini yoritib?
33.	Jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning asoslarini yoritib?
34.	Shartli hukm qilish asoslari va shartlari nimalardan iborat?
35.	Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kimlarga va qanday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga qo'llanilmaydi?
36.	Jinoyatga daxldorlik masalasini yoritib?
37.	Sud jazo tayinlash chog'ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog'i vaqtini qanday hisoblaydi?
38.	Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilishning qanday asoslari mavjud?
39.	Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash asoslari va tartibini yoritib?
40.	Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo va majburlov choralarining qanday turlari mavjud?
41.	Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlardan biri bo'lgan jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish mazmun-mohiyatini yoritib bering?
42.	Jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish hamda qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tushuntirib bering?
43.	Jinoyat kodeksi 110-moddasida javobgarlik belgilangan qiynash jinoyati uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama eting?
44.	Genotsid jinoyati tushunchasi, yuridik tahlili hamda javobgarlikni keltirib chiqaruvchi asoslarini muhokama eting?
45.	Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik masalasini muhokama eting?

46.	Yolg'on xabar berish va yolg'on guvohlik berish jinoyatlari uchun javobgarlikning o'zaro farqlarini muhokama eting?
47.	Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasiva belgilari.
48.	Jinoyatga suiqasd qilish tushunchasi va turlari
49.	Ekssess bajaruvchi haqida ma'lumot bering.
50.	Jinoyatga daxldorlik tushunchasi va uning turlari
JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI	
1.	Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining mohiyatini tushuntirib bering.
2.	Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari, asosi va tartibini tushuntirib bering.
3.	Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar turlarini sanab bering va mazmunini tushuntiring.
4.	Jinoyat protsessual huquqi normalarini tushuntirib bering.
5.	Jinoyat-protsessual qonunining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amal qilishini tushuntirib bering.
6.	Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi prinsipini tushuntirib bering.
7.	Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipini tushuntirib bering.
8.	Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va ularning tasniflanishini tushuntirib bering.
9.	Jinoyat protsessida fuqaroviy javobgar maqomini tushuntirib bering.
10.	Jinoyat protsessida qonuniy vakil maqomini tushuntirib bering.
11.	Himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar deganda nimani tushunasiz?
12.	Rad qilish va o'zini o'zi rad etish hamda ularni hal qilish tartibi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
13.	Isbot qilish predmeti deganda nimani tushunasiz?
14.	To'g'ri va egri dalillarni tushuntirib bering.
15.	Shaxsiy va ashyoviy dalillarni tushuntirib bering.
16.	Dastlabki va hosila dalillarni tushuntirib bering.
17.	Dalillarni tekshirish mohiyatini tushuntirib bering.
18.	Dalillarni baholash mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
19.	Tergov harakatlarining boshqa protsessual harakatlardan farqini tushuntirib bering.
20.	So'roq qilish joyi tushunchasini tushuntirib bering.
21.	Iqrorlik mazmunidagi ko'rsatuvlarni tushuntirib bering.
22.	Guvoh sifatida so'roq qilish mumkin bo'lmagan shaxslar kimlar ekanligini tushuntirib bering.
23.	Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish haqida ma'lumot bering.

24.	Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish haqida ma'lumot bering.
25.	Majburiy keltirishni tushuntirib bering.
26.	Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxatni tushuntirib bering.
27.	Shaxsiy kafillik deganda nimani tushunasiz?
28.	Protsessual chiqimlar haqida ma'lumot bering.
29.	Dalillarning maqbul emaslik shartlarini tushuntirib bering.
30.	Gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorni e'lon qilishda himoyachining ishtirokini tushuntirib bering.
31.	Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibi va asoslarini tushuntirib bering?
32.	Ayb e'lon qilish, ayblovni o'zgartirish, tugatish va to'ldirish. Tugatilgan ayblovni qayta tiklash tartibini tushuntirib bering.
33.	Dastlabki tergovni to'xtatishning asoslari haqida ma'lumot bering.
34.	Qisman reabilitatsiya etish asoslarini tushuntirib bering?
35.	Ayblanuvchi yoki sudlanuvchi kasal bo'lib qolganida jinoyat ishini yuritishni to'xtatish haqida ma'lumot bering.
36.	Ayblov xulosasi haqida ma'lumot bering.
37.	Qo'shimcha so'roq asoslarini tushuntirib bering?
38.	Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokuror hal etishi lozim bo'lgan masalalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
39.	Sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatini o'zgartirish. Jinoyat ishini sudga yuborish haqida fikr yuriting.
40.	Jinoyat ishi bo'yicha yarashuv tartibi va talablari haqida ma'lumot bering?
41.	Aybgga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning mazmunini yoriting.
42.	Sud muhokamasining doirasi haqida ma'lumot bering.
43.	Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish uchun asoslarini tushuntirib bering?
44.	Hukmga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
45.	Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish muddatlari qanday?
46.	Sud majlisida raislik qiluvchi va uning vazifalari haqida fikr yuriting.
47.	Sudlanuvchining ruhiy kasalligi va aqli norasoligi masalasini muhokama qiling.
48.	Hukm chiqarish bilan bir vaqtda sud tomonidan hal qilinadigan boshqa masalalarni tahlil qiling.
49.	Narsa va hujjatlarni taqdim qilish tergov harakatining mazmunini izohlang.
50.	Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos jihatlarini tushuntirib bering?

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

1.	Sudyalar korpusini shakllantirish tushunchasiga ta'rif bering hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish tartibiga to'xtaling.
2.	Aybsizlik prezumpsiyasi nima? Odil sudlovni amalga oshirishda uning ahamiyati qanday?
3.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
4.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlarini tushuntirib bering.
5.	Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudining, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudining vakolatlarini tahlil qiling.
6.	Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash qanday yo'llar orqali amalga oshiriladi.
7.	Sudyaning daxlsizligi haqida ma'lumot bering.
8.	Sudyaning vakolatlari muddati va uni hisoblash tartibini tushuntiring.
9.	Sud ishlari yuritiladigan til haqida nimalarni bilasiz?
10.	Sudyani boshqa sudyalik lavozimiga o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
11.	Sudyalar intizomiy javobgarligining asoslarini aytib bering.
12.	Sudyalar malaka hay'atlari faoliyati haqida ma'lumot bering.
13.	Sud apparati uning odil sudlovni amalga oshirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
14.	Konstitutsiyaviy sudga murojaatga qo'yiladigan talablarni ayting.
15.	Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatini ayting.
16.	Jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishining alohida tartibini tushuntirib bering.
17.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ishni ko'rib chiqishning bevositaligi va sud majlisining uzluksizligi haqida ma'lumot bering.
18.	Konstitutsiyaviy sud qarorlarining turlari haqida ma'lumot bering.
19.	Konstitutsiyaviy sud qarorining yuridik kuchini tushuntirib bering.
20.	Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishni ko'rib chiqish muddatlari, ushbu muddatlarni hisoblash hamda muddatning tugashi masalalarini tushuntiring.
21.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining tarkibi va uni shakllantirish tartibini tushuntirib bering.
22.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
23.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining majlisi va uni o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
24.	Birinchi marta tayinlanadigan sudyalarni tanlashning asosiy mezonlari nimalar iborat ekanligini aytib bering.
25.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi a'zosining vakolatlari muddati va ularning daxlsizligi tushuntirib bering.
26.	Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
27.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

28.	Prokuratura organlarining tizimi haqida ma'lumot bering.
29.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi haqida ma'lumot bering.
30.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va uni tayinlash tartibi qanday?
31.	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan protest haqida ma'lumot bering.
32.	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan taqdimnoma haqida ma'lumot bering.
33.	Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning ishtiroki haqida ma'lumot bering.
34.	Ichki ishlar organlari tizimi haqida ma'lumot bering.
35.	Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
36.	Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qanday prinsiplardan iborat?
37.	Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish tartibini tushuntiring.
38.	Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tushuntirib bering.
39.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
40.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tizimini yoritib bering.
41.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqlari tushuntirib bering.
42.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari haqida ma'lumot bering.
43.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi haqida ma'lumot bering.
44.	Bojxona organlarining asosiy vazifalarini aytib bering.
45.	Bojxona organlari tizimi haqida ma'lumot bering.
46.	Bojxona organlarida xizmatga qabul qilish va xizmatni o'tash tartibini aytib bering.
47.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarini sanab bering.
48.	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlarini ayting.
49.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlarini tahlil qiling.
50.	Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi masalasini yoritib bering.
ADVOKATURA	
1.	O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lish uchun qo'yilgan talablarni yoritib bering.
2.	O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, advokat maqomiga ega bo'lish uchun shaxs stajirovka o'tashi kerakligi belgilangan. Ammo ayrim shaxslar stajirovka o'tashdan ozod qilingan. Ushbu shaxslar haqida ma'lumot bering.
3.	Advokatlik tuzilmasi hisoblangan advokatlik byurosini tushuntirib bering.
4.	Advokatlik tuzilmasi hisoblangan advokatlik firmasini tushuntirib bering.
5.	O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, advokatlik firmasini ta'ris etgan advokatlar oddiy yozma shaklda

	o‘zaro sheriklik shartnomasini tuziladi. Mazkur sheriklik shartnomasi mazmuni va u qaysi hollarda tugatilishini yoritib bering.
6.	Advokatlik tuzilmasi hisoblangan advokatlar hay’atini tushuntirib bering.
7.	Advokatlik tuzilmasi hisoblangan yuridik maslahatxonani tushuntirib bering.
8.	Advokatlik faoliyatining turlari yoritib bering.
9.	Advokat so‘rovi tushunchasi va unga qo‘yilgan talablarni yoritib bering.
10.	Advokat so‘rovida nimalar ko‘rsatilishini yoritib bering.
11.	Advokat yordamchisi bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar va uni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.
12.	Advokatning stajyori bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar va uni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.
13.	Advokatlik siri mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
14.	Yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitim (shartnoma) mazmun-mohiyatini yoritib bering.
15.	Advokatlik faoliyatining kafolatlari mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
16.	Advokatlar mehnatiga haq to‘lash mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
17.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi to‘g‘risida ma’lumot bering.
18.	Advokatlar palatasining asosiy vazifalarini yoritib bering.
19.	Advokatlar palatasining organlari va mansabdor shaxslari to‘g‘risida ma’lumot bering.
20.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari to‘g‘risida ma’lumot bering.
21.	Advokat maqomini to‘xtatib turish asoslari va tartibini tushuntirib bering.
22.	Advokatlik litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish asoslari va tartibini tushuntirib bering.
23.	Advokatlik litsenziyasining amal qilishini tugatish asoslari va tartibini tushuntirib bering.
24.	Advokatlik faoliyatini litsenziyalash ixtisosliklari to‘g‘risida ma’lumot bering.
25.	O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, advokatning vakolatlarini yoritib bering.
26.	Advokatning mustaqilligini ta’minlash usullarini yoritib bering.
27.	Advokatning daxlsizligi tushunchasi va mazmun-mohiyatini yoritib bering.
28.	Advokatlik faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi tushunchasi va mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
29.	Advokatlik faoliyati himoyalaniishini ta’minlash tushunchasi va mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
30.	Davlat bilan advokatura o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tushuntirib bering.
31.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari vakolatlarini tushuntirib bering.
32.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalarining faoliyatini tashkil etish tartibini tushuntirib bering.
33.	O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyasining mas’ul kotibi to‘g‘risida ma’lumot

	bering.
34.	Malaka imtihonini topshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar sanang va ularni tushuntirib bering.
35.	Mas'ul kotib tomonidan talabgor taqdim etgan hujjatlar o'rganib chiqilgandan keyin ular talabgorga qaysi hollarda qaytarib berilishi mumkinligini yoritib bering.
36.	Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish uchun asoslarni yoritib bering.
37.	Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi qanday qarorlarni qabul qilishi mumkinligini tushuntirib bering.
38.	Advokat maqomiga ega bo'lishga talabgordan advokatlik qasamyodini qabul qilish tartibini yoritib bering.
39.	Advokatlik guvohnomasini olish uchun ariza berish va uni ko'rib chiqish tartibini yoritib bering.
40.	Advokatlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish asoslari va tartibini tushuntirib bering.
41.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi vakolatlarini yoritib bering.
42.	Davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumot bering.
43.	Advokatni Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reyestriga kiritish va undan chiqarish tartibi tushuntirib bering.
44.	Himoyachini taklif etish tartibini tushuntirib bering.
45.	Himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollar tushuntirib bering.
46.	Himoyachidan voz kechish tartibini yoritib bering.
47.	Guvohning advokati to'g'risida ma'lumot bering.
48.	Ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarda advokat ishtiroki to'g'risida ma'lumot bering.
49.	Advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish ma'muriy huquqbuzarligi to'g'risida ma'lumot bering.
50.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilning vakolatlarini tushuntirib bering.